

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025  
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|                                                                                                                                               |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>U.I.Obidjanov</b>                                                                                                                          |     |
| Laboratoriya mashg'ulotlarining biologiya fanini o'zlashtirishga ta'siri.....                                                                 | 96  |
| <b>M.A.Abduxalilova</b>                                                                                                                       |     |
| O'quvchilarda ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini shakllantirish .....                                                   | 100 |
| <b>M.A.Mamasaidova, M.X.Akbaraliyeva</b>                                                                                                      |     |
| Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga ko'paytirish amalini o'rgatishning interfaol usullari .....                                                | 107 |
| <b>G.S.Qosimova</b>                                                                                                                           |     |
| Tibbiy ta'limda matematik modellashirish orqali organizmning funksional holatlari va himoya-moslashuv jarayonlarini o'qitish usullari .....   | 112 |
| <b>S.R.Toshboyeva, L.A.Yusupova</b>                                                                                                           |     |
| Boshlang'ich sinf matematika darslarida kombinatorika elementlarini o'qitishda qo'llaniladigan asosiy qoidalar .....                          | 117 |
| <b>A.A.Mirzaliyev</b>                                                                                                                         |     |
| Пути повышения эффективности системы морально-психологической подготовки и теоретическая модель ее организации.....                           | 121 |
| <b>A.T.Akbarov</b>                                                                                                                            |     |
| Basketbolning jismoniy rivojlanish va salomatlikni mustahkamlashdagi muhim roli .....                                                         | 127 |
| <b>S.M.Sidiqov</b>                                                                                                                            |     |
| Yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda harakatli o'yinlardan foydalanish .....                                  | 132 |
| <b>Z.N.Usmonov</b>                                                                                                                            |     |
| Jismoniy madaniyat ta'limi va tarbiyasi jarayonini rejalashtirishga qo'yiladigan talablar.....                                                | 137 |
| <b>S.T.Xakimov, N.B.Komilova</b>                                                                                                              |     |
| Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish (basketbol sport turi misolida) .....           | 142 |
| <b>X.T.Xasanov</b>                                                                                                                            |     |
| Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi xususiyatlari .....                                               | 147 |
| <b>G.K.Yakubova</b>                                                                                                                           |     |
| Turli yoshdagi odamlarning har hil sharoit va hududlarda nafas olishini tahlil qilish .....                                                   | 153 |
| <b>T.T.Yusupov</b>                                                                                                                            |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun gimnastika mashqlari majmuini tuzish va uni o'tkazishga qo'yiladigan talablar .....                        | 158 |
| <b>Y.J.Mirzaaxmedova</b>                                                                                                                      |     |
| Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixi bo'yicha bilimlarni shakllantirishning pedagogik jihatlari .....                      | 164 |
| <b>A.M.Maxmutaliyev</b>                                                                                                                       |     |
| Umumta'lim maktabining boshlang'ich jismoniy madaniyat jamoasi faoliyatida innovatsiyalar.....                                                | 168 |
| <b>D.E.Yuldasheva</b>                                                                                                                         |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyasi .....         | 173 |
| <b>Y.J.Mirzaaxmedova</b>                                                                                                                      |     |
| Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik imoniyatlari .....             | 178 |
| <b>D.E.Yuldasheva</b>                                                                                                                         |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv modeli .....                | 182 |
| <b>L.E.Bobomurodova</b>                                                                                                                       |     |
| Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ma'naviy va kasbiy sifatlariga qo'yilgan talablar .....                                                  | 189 |
| <b>G.O'.Yuldasheva</b>                                                                                                                        |     |
| Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirish: komponentlar va ularning ahamiyati..... | 194 |
| <b>E.K.Muxtarov</b>                                                                                                                           |     |
| Kvant mexanikasi fanidan amaliy darslarda masalalarni yechishning metodik jihatlari .....                                                     | 194 |



UO'K: 37.013.42:504.064.3

**O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYAT VA BARQAROR RIVOJLANISH  
TAMOIYLLARINI SHAKLLANTIRISH****ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ПРИНЦИПОВ УСТОЙЧИВОГО  
РАЗВИТИЯ У УЧАЩИХСЯ****FORMATION OF STUDENTS' PRINCIPLES OF ECOLOGICAL CULTURE AND  
SUSTAINABLE DEVELOPMENT****Abduxalilova Madinaxon Abdumajid qizi** 

Farg'ona davlat universiteti, Sirtqi bo'lim, Aniq va tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini tatbiq etish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda ekologik ta'limning zamonaviy tendensiyalari, muammolari, shuningdek, ekologik ong va madaniyatni rivojlantirishga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ekologik ta'lim sohasida faoliyat yuritgan olimlarning qarashlari, hozirgi holat va kelajak prognozlar matematik tahlil asosida bayon etiladi. Maqolada ekologik ta'limning amaliy tajribalari va yangi ilmiy manbalar asosida tahlillar kengaytirilgan.

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются вопросы формирования экологической культуры у учащихся и внедрения принципов устойчивого развития. В исследовании анализируются современные тенденции экологического образования, его проблемы, а также научные подходы к развитию экологического сознания и культуры. Кроме того, приводятся взгляды ученых, работающих в области экологического образования, анализируется текущая ситуация и прогнозы на будущее на основе математического анализа. В статье расширены исследования за счет практического опыта экологического образования и новых научных источников.

**Abstract**

This article examines the issues of developing students' ecological culture and implementing sustainable development principles. The study analyzes modern trends in ecological education, its challenges, and scientific approaches to fostering environmental awareness and culture. Additionally, the views of researchers in the field of ecological education, the current situation, and future forecasts based on mathematical analysis are presented. The research has been expanded with practical experiences in ecological education and new scientific sources.

**Kalit so'zlar:** ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, ekologik ta'lim, ekologik ong, ekologik tafakkur, ekologik muammolar, zamonaviy tendensiyalar, ekologik kompetensiya, barqaror rivojlanish tamoyillari, amaliy ekologik tajribalar, ekologik ongni shakllantirish, interfaol o'qitish, ekologik loyihalar, STEM yondashuvi, ekologik innovatsiyalar.

**Ключевые слова:** экологическая культура, устойчивое развитие, экологическое образование, экологическое сознание, экологическое мышление, экологические проблемы, современные тенденции, экологическая компетентность, принципы устойчивого развития, практический экологический опыт, формирование экологического сознания, интерактивное обучение, экологические проекты, STEM-подход, экологические инновации.

**Key words:** ecological culture, sustainable development, environmental education, environmental awareness, environmental thinking, environmental issues, modern trends, ecological competence, principles of sustainable development, practical environmental experience, formation of environmental awareness, interactive learning, environmental projects, STEM approach, ecological innovations.

**KIRISH**

Bugungi kunda ekologik muammolar butun dunyo bo'ylab dolzarb masalaga aylanib, atrof-muhitning buzilishi, tabiiy resurslarning kamayishi, global isish va ekologik inqirozlar insoniyatning barqaror rivojlanishiga jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu muammolarni hal etish va barqaror rivojlanish tamoyillarini yoshlarga singdirish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG-2030) ekologik ta'limning jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rnini ta'kidlab, insonlarning ekologik mas'uliyatini oshirishga chaqiradi. O'zbekiston Respublikasi ham ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini ta'lim jarayoniga integratsiyalashga katta e'tibor qaratmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish to'g'risida"gi qonuni, shuningdek, Prezidentning 2021-yil 30-oktabrdagi "Ekologik ta'lim va tarbiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5185-sonli qarori ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslarini belgilab berdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan 2022-yil 21-yanvardagi PF-46-sonli "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish to'g'risida"gi farmoni mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash, o'quvchi va yoshlar ongida ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi. Ushbu farmon asosida ekologik ta'limni rivojlantirish, o'quv dasturlariga ekologik fanlarni kiritish, ekologik savodxonlikni oshirish hamda maktab va oliy ta'lim muassasalarida ekologik loyihalarni kengaytirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish atrof-muhitni muhofaza qilish bilan cheklanmay, balki insonlarning ekologik tafakkurini o'stirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va ekologik muammolarni hal etish bo'yicha ijtimoiy mas'uliyatni oshirishni ham o'z ichiga oladi. Ekologik ta'limni yosh avlod ongiga singdirish ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim shartlaridan biri bo'lib, u ekologik muammolarni chuqur anglash, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan yondashish va ekologik innovatsiyalarni joriy etish orqali kelajak avlodlar uchun qulay yashash muhitini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu sababli, ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish va o'quvchilarning ekologik savodxonligini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish zarur. Mazkur yo'nalishda davlat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar ekologik ta'limni rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo'lib, o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini tatbiq etishda katta ahamiyat kasb etadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ushbu yo'nalishda dunyo miqyosida ko'plab olimlar o'z hissalarini qo'shganligini ko'rish mumkin. Ushbu tadqiqotlar ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirishda fundamental ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy ekologik ta'lim metodologiyalarining shakllanishiga zamin yaratgan. Quyida ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish sohasida eng muhim ilmiy izlanishlarni olib borgan olimlarning hissasi batafsil yoritiladi.

Shveytsariyalik taniqli psixolog Jean Piaget o'zining kognitiv rivojlanish nazariyasi orqali ekologik ong shakllanishining yoshga bog'liq bosqichlarini o'rganib chiqdi. U bolalarning tabiat va atrof-muhit haqidagi tushunchalari turli kognitiv bosqichlarda qanday rivojlanishini tadqiq qilgan. Piaget ta'kidlashicha, bolalar ekologik muhitni turli yosh bosqichlarida har xil qabul qiladi:

Sensor-motor bosqichi (0-2 yosh) – atrof-muhitni faqat bevosita sezgilari orqali tushunadi.

Preoperatsional bosqich (2-7 yosh) – tabiatga nisbatan antropomorfik (insonsimon) qarashlar shakllanadi.

Konkret operatsiyalar bosqichi (7-11 yosh) – bolalar sabab-oqibat munosabatlarini tushunishni boshlaydi.

Formal operatsiyalar bosqichi (11 yosh va undan yuqori) – ekologik muammolarni chuqur tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi.

Piagetning bu nazariyasi ekologik ta'lim metodikasini ishlab chiqishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilgan. Uning tadqiqotlari asosida yoshga mos ekologik ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan va bolalar ekologik ongini rivojlantirish bo'yicha turli metodlar ishlab chiqilgan.

Lev Vygotsky ekologik ta'limni ijtimoiy-madaniy rivojlanish bilan bog'lash muhimligini ta'kidlagan. Uning fikricha, ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda insonning ijtimoiy muhitdagi o'rnini, oilaviy tarbiya va jamiyatning roli juda katta. Vygotsky ekologik ongni rivojlantirishda quyidagi tamoyillarni ilgari surgan:

Yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) – ekologik tushunchalarni o'quvchilarga tushuntirishda kattalar va ilg'or hamkasblarning yordami muhim.

Madaniy vositachilik – ekologik tushunchalarni vizual tasvirlar, metaforalar va interaktiv o'quv materiallari orqali yetkazish samaradorlikni oshiradi.

Kooperativ o'rganish – ekologik muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish va ularni hal qilish bo'yicha jamoaviy ishlar o'quvchilarning ekologik savodxonligini oshirishga yordam beradi.

Vygotskiyning ushbu nazariyalari asosida ekologik ta'limda hamkorlikda o'qitish, tajriba asosida o'rganish va amaliy mashg'ulotlar keng qo'llanila boshlandi.

Amerikalik ekolog David Orr ekologik ta'limni inson hayotining barcha jabhalariga integratsiya qilish g'oyasini ilgari surgan. U ekologik ta'limni maktab va universitet dasturlariga joriy qilish bilan cheklanmasdan, balki kundalik hayotda ekologik ong va mas'uliyatni rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan. Orrning asosiy g'oyalari quyidagilar:

Ekologik ta'lim faqat nazariy emas, balki amaliy bo'lishi lozim – o'quvchilar ekologik loyihalar va tajribalar orqali o'rganishi kerak.

"Ekologik savodsizlik"ga qarshi kurash – ekologik muammolarni hal qilish uchun har bir fuqaroning ekologik bilimiga ega bo'lishi shart.

Universitet kampuslarining yashil tamoyillarga asoslangan holda qurilishi – ta'lim muassasalari ekologik ongni shakllantirishda namuna bo'lishi kerak.

David Orrning g'oyalari bugungi kunda "Green Campus" (yashil kampus) dasturlari, ekologik universitetlar va amaliy ekologik treninglar shaklida keng qo'llanilmoqda.

Sterling ekologik ta'limda tizimli yondashuv va reflektiv pedagogika usullarini rivojlantirgan. U ekologik ta'limning samarali bo'lishi uchun quyidagi tamoyillarni ilgari surgan:

Holistik o'qitish – ekologik bilimlarni turli fanlar bilan integratsiya qilish.

Reflektiv pedagogika – o'quvchilarni ekologik muammolar ustida chuqur o'ylashga undash.

Tizimli fikrlash – ekologik muammolarni faqat alohida hodisa sifatida emas, balki global tizimlarning bir qismi sifatida tushuntirish.

Sterlingning nazariyasi bugungi kunda ekologik fanlarni STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yondashuvi bilan integratsiya qilishda qo'llanilmoqda.

Bugungi kunda ekologik ta'limni rivojlantirish bo'yicha Finlyandiya, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ilg'or metodologik yondashuvlar qo'llanilmoqda. Ushbu davlatlarda:

Ekologik maktablar va universitetlar tashkil etilgan.

STEM yondashuvi asosida ekologik bilimlar o'qitilmoqda.

Virtual laboratoriyalar va ekologik simulyatsiyalar orqali ekologik eksperimentlar olib borilmoqda.

Ekologik savodxonlik dasturlari ishlab chiqilib, aholi ongiga ekologik muammolar yetkazilmoqda.

Xususan, Finlyandiya ekologik ta'limni davlat siyosati darajasiga olib chiqqan bo'lsa, Yaponiya va Janubiy Koreya raqamli texnologiyalar yordamida ekologik ta'limni rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalarga ega.

Ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bu sohaning murakkab va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. Piaget, Vygotskiy, Orr va Sterling kabi olimlarning nazariyalari ekologik ta'limning zamonaviy shakllarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etgan. Zamonaviy dunyoda ekologik ta'limni rivojlantirish uchun turli fanlar bilan integratsiyalash, tizimli fikrlashni shakllantirish va interaktiv metodlarni qo'llash zarur.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini o'quvchilarga singdirish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq, ushbu jarayonda bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular ekologik ta'lim samaradorligini pasaytirishi mumkin. Quyida asosiy muammolar va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri kengroq yoritiladi.

Ko'plab umumta'lim maktablarida ekologik fanlar alohida mustaqil predmet sifatida o'qitilmaydi yoki umumiy tabiiy fanlar doirasida qisqa mavzularda yoritilib, chuqur o'rganilmaydi. Natijada, o'quvchilarning ekologik savodxonligi yetarli darajada shakllanmaydi. Ta'lim dasturlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ekologiya va barqaror rivojlanish bo'yicha mavzular ayrim tabiiy fanlar (biologiya, kimyo, geografiya) tarkibida qisqa boblar shaklida beriladi, ammo ularning o'zaro bog'liqligi va amaliy ahamiyati yetarlicha tushuntirilmaydi. Shu sababli, ekologik fanlarni mustaqil

dars sifatida joriy etish yoki boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda kengroq o'qitish zarurati mavjud.

Nazariy bilimlarning yetarli darajada berilmaganligi va amaliy mashg'ulotlarning kamligi sababli o'quvchilar ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha aniq ko'nikmalarga ega emaslar. Masalan, chiqindilarni qayta ishlash, suv va energiya tejash kabi muhim jihatlar bo'yicha ko'pchilik o'quvchilar faqat umumiy ma'lumotlarga ega bo'lib, ularni hayotda qanday qo'llashni bilmaydi. Shu sababli, ekologik laboratoriyalar, ekskursiyalar, ekologik loyihalar va amaliy mashg'ulotlarni ta'lim tizimiga kengroq joriy etish lozim. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda bu maqsadda maktab bog'lari, ekologik laboratoriyalar va turli ko'rgazmali tajribalar tashkil etilgan bo'lib, bu usullarni O'zbekiston ta'lim tizimiga ham moslashtirish mumkin.

An'anaviy dars o'tish uslublari ekologik fanlarni tushuntirishda yetarli samara bermaydi. Aksincha, ekologik ta'lim interfaol yondashuvlarni talab qiladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekologik masalalarni hal qilishga qaratilgan o'yinlar, loyiha ishlari, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, jamoaviy munozaralar o'quvchilarning ekologik ongini rivojlantirishda samarali natija beradi. Ammo O'zbekiston ta'lim tizimida ekologik ta'lim jarayonida bunday metodlarning keng joriy qilinmaganligi sababli o'quvchilarning ekologik masalalarga bo'lgan qiziqishi sust bo'lib qolmoqda. Ushbu metodlarni qo'llash orqali o'quvchilar ekologik muammolarni real hayot misolida tahlil qilish, ularning sabablari va oqibatlarini tushunish imkoniga ega bo'lishlari mumkin.

Ekologik ta'lim faqat maktab yoki oliy ta'lim muassasalarining vazifasi bo'lib qolmasligi kerak. Ota-onalar farzandlarining ekologik ongini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, ko'pchilik ota-onalar ekologik muammolar va ularning yechimlari bo'yicha yetarli bilimga ega emaslar. Bundan tashqari, ekologik madaniyatni shakllantirishda oilaviy qadriyatlar va kundalik odatlarning ham o'zni katta. Masalan, chiqindilarni saralash, suv va elektr energiyasini tejash, plastik mahsulotlardan foydalanishni kamaytirish kabi amaliy odatlar avloddan avlodga o'tishi lozim. Shu sababli, ota-onalarni ekologik ta'lim jarayoniga jalb etish maqsadida maktablar va mahallalar miqyosida turli seminarlar, ochiq darslar va ekologik tadbirlarni tashkil etish lozim.

2023-yilda O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim darajasini baholash bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalari mavjud muammolarni yanada chuqurroq o'rganish imkonini berdi. So'rovda 1000 nafar respondent (o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar) ishtirok etdi. Tadqiqot natijalari quyidagicha bo'ldi:

- **63% o'quvchi** ekologik muammolar haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa-da, ularning aksariyati ekologik jarayonlarning ilmiy asoslarini yetarlicha tushunmaydi.

- **28% o'quvchi** ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha aniq amaliy bilimlarga ega ekanligini bildirdi, bu esa ekologik ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi.

- **47% ota-ona** ekologik muammolar bo'yicha yetarli tushunchaga ega emasligi ma'lum bo'ldi, bu esa ularning bolalarni ekologik jihatdan tarbiyalashga yetarli e'tibor qaratmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

- **O'qituvchilarning 52%** ekologik ta'limni rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar yetishmayotganini ta'kidladilar.

Yuqoridagi natijalar ekologik ta'lim tizimining muammolarini hal qilish uchun ta'lim dasturlarini takomillashtirish, interfaol va amaliy usullarga ko'proq e'tibor qaratish, ota-onalar va jamoatchilikni jalb etish kabi kompleks chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda ekologik ta'lim jarayonida mavjud muammolar tizimli va ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Mavjud muammolarni hal qilish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Ekologik ta'lim fanlarini ta'lim dasturlariga kengroq joriy etish va integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash.

- Amaliy mashg'ulotlar va interfaol o'qitish metodlarini keng joriy etish.

- Ota-onalarni ekologik tarbiya jarayoniga faol jalb qilish.

- O'quvchilar orasida ekologik madaniyatni shakllantirish uchun loyihalar va tadbirlarni ko'paytirish.

Agar ushbu yo'nalishlar bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilsa, ekologik ta'limning samaradorligi oshib, kelajak avlodning ekologik ongini yuksaltirishga xizmat qiladi.

### HOZIRGI HOLAT VA MUAMMOLAR

Ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini o'quvchilarga singdirish jarayonida bir qator muammolar mavjud bo'lib, bu muammolar ekologik ta'lim samaradorligini pasaytiradi va uning amaliy natijalarini cheklaydi. Ushbu muammolar quyidagilardan iborat:

O'zbekistondagi ta'lim tizimida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq fanlar cheklangan hajmda o'qitiladi. Ko'pchilik o'quvchilar ushbu mavzular bilan faqatgina tabiiy fanlar doirasida tanishadilar, biroq ular uchun ekologik masalalar mustaqil va keng ko'lamda o'rganiladigan fan sifatida yetarlicha yoritilmaydi. Natijada, o'quvchilar ekologik madaniyatni chuqur o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

Nazariy bilimlar o'quvchilarga berilgan bo'lsa-da, ularning hayotda qo'llanilishi yetarlicha yo'lga qo'yilmagan. Masalan, o'quvchilar chiqindilarni saralash, energiyani tejash, tabiatni muhofaza qilish kabi amaliy jihatlar bo'yicha yetarli tajribaga ega emaslar. Ekologik ta'lim jarayoni amaliy mashg'ulotlar, loyihaviy yondashuv va interfaol usullar bilan boyitilmasa, o'quvchilarning bilimlari faqat nazariya doirasida qolib ketishi mumkin.

Ko'plab ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim an'anaviy dars shaklida o'tiladi. Holbuki, ekologik madaniyatni shakllantirish uchun tajribalar, ekskursiyalar, amaliy loyihalar, ekologik treninglar kabi interfaol usullar samaraliroq bo'lishi mumkin. Shuningdek, ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha o'quvchilarga mustaqil izlanishlar olib borish imkoniyatini yaratish lozim.

Oilaviy tarbiya ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ammo ko'pgina hollarda ota-onalar ekologik ta'limga yetarlicha e'tibor qaratmaydilar. Ularning aksariyati atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emasligi sababli farzandlariga ushbu mavzuda to'g'ri yo'nalish bera olmaydi. Agar ota-onalar ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoniga jalb qilinsa, o'quvchilarning ushbu boradagi bilimi yanada mustahkamlanishi mumkin.

2023-yilda O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim darajasini o'rganish bo'yicha so'rov o'tkazildi. Tadqiqotda 1000 nafar respondent ishtirok etdi. So'rov natijalariga ko'ra:

- 63% o'quvchi ekologik muammolar haqida umumiy tushunchaga ega ekanligini bildirdi.
- Biroq, faqatgina 28% o'quvchi ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha aniq amaliy bilimlarga ega ekanligini ko'rsatdi.

Bu natijalar ekologik ta'lim nazariy jihatdan ma'lum darajada o'quvchilarga yetkazilayotgan bo'lsa-da, uning amaliyotda qo'llanishi yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligini ko'rsatadi.

### MATEMATIK TAHLIL VA STATISTIKA

Ekologik madaniyat darajasini yanada aniq baholash va tahlil qilish uchun statistik tahlillar o'tkazildi. Ushbu tahlillar ekologik ta'lim samaradorligi, o'quvchilarning ekologik ong darajasi hamda kelajakdagi rivojlanish bashoratlarini qamrab oladi.

***O'quvchilarning ekologik ong darajasi (Likert shkalasi bo'yicha tahlil).*** O'quvchilarning ekologik bilim va ong darajasi 1 dan 5 gacha bo'lgan Likert shkalasi bo'yicha baholandi. Tadqiqot natijalari quyidagicha:

- **Past daraja (1-2 ball)** – 22% o'quvchi ekologik bilimlarga juda kam ega yoki umuman ega emas.
- **O'rta daraja (3 ball)** – 50% o'quvchi ekologik muammolar haqida umumiy tushunchaga ega, ammo ularni chuqur anglamaydi va amaliyotda qo'llay olmaydi.
- **Yuqori daraja (4-5 ball)** – 28% o'quvchi ekologik masalalarga jiddiy qiziqish bildiradi va ularni hal qilish bo'yicha aniq ko'nikmalarga ega.

Bu natijalar ekologik ta'limni yanada amaliy va interfaol usullarga asoslangan holda takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

***Ekologik ta'lim ta'sirining samaradorligi (2020-2023 yillar oralig'idagi taqqoslash).*** Ekologik ta'limning o'sish sur'ati quyidagi raqamlar orqali aks etgan:

- **2020-yil:** O'quvchilarning 48% ekologik muammolar haqida xabardor edi.
- **2023-yil:** Ushbu ko'rsatkich 63% ga yetdi.
- **O'sish sur'ati:** 15% (yiliga o'rtacha 5%).

Bu ma'lumotlar ekologik ta'limda ijobiy dinamika mavjudligini ko'rsatadi. Biroq, 63% ko'rsatkich hali ham yetarlicha yuqori emas. Ushbu natijalarni yanada yaxshilash uchun ta'lim dasturlariga ekologik komponentlarni chuqurroq kiritish lozim.

***Kelajak bashorati va rivojlanish prognozi.***

Statistik regressiya tahlili asosida kelgusidagi rivojlanish bashorat qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, agar ekologik ta'limga investitsiyalar ikki baravar oshirilsa, ya'ni:

- O'quv dasturlariga ekologik fanlar ko'proq integratsiya qilinsa,
- O'qitish metodlari interfaol yondashuvlar asosida boyitilsa,
- Amaliy ekologik loyihalar soni ko'paytirilsa,

Shunda **2030-yilga borib o'quvchilarning ekologik xabardorlik darajasi 90% ga yetishi mumkin.**

Bu bashorat ekologik ta'limga qaratilgan resurslar va e'tibor oshirilsa, natijalar sezilarli darajada yaxshilanishi mumkinligini ko'rsatadi.

### XULOSA

Ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini o'quvchilarga singdirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat o'quvchilar ekologik muammolar haqida nazariy bilimga ega bo'lsa-da, ushbu bilimlarni kundalik hayotda qo'llashda yetarlicha ko'nikmaga ega emaslar.

Statistik tahlillar shuni tasdiqlaydiki, ekologik ong darajasi o'rtacha bo'lib, Likert shkalasi bo'yicha baholash natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 22% ekologik tafakkur darajasi past, 50% o'rtacha, 28% esa yuqori ko'rsatkichga ega. Shu bilan birga, ekologik ta'lim sohasida olib borilgan islohotlar natijasida 2020-yildan 2023-yilgacha ekologik xabardorlik darajasi 48% dan 63% ga oshgani kuzatildi. Bu esa har yili o'rtacha 5% o'sishni anglatadi. Regressiya tahliliga ko'ra, agar ekologik ta'limga ajratilayotgan mablag' va e'tibor ikki baravar oshirilsa, 2030-yilga borib o'quvchilarning ekologik xabardorlik darajasi 90% ga yetishi mumkin.

Shunday ekan, mavjud tendensiyalar ekologik ta'limni yanada rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatmoqda. Buning uchun ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar joriy etilishi hamda kompleks choralar amalga oshirilishi lozim.

Ekologik ta'limni rivojlantirish va o'quvchilarning ekologik madaniyatini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

Ekologik ta'lim alohida fan sifatida emas, balki barcha fanlarga integratsiyalashgan holda o'qitilishi kerak. Masalan, biologiya, geografiya, kimyo va texnologiya fanlarida ekologik komponentlar kuchaytirilishi lozim.

O'quvchilar ekologik masalalarni tahlil qilish va amaliy yechimlar topish uchun zamonaviy STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yondashuvlaridan foydalanishlari kerak. Masalan, ekologik monitoring loyihalari, matematik modellashirish va statistik tahlillar orqali atrof-muhit muammolarini o'rganish samarali natija beradi.

O'quvchilarning ekologik tafakkurini shakllantirish uchun nazariy bilimlar yetarli emas. Shu sababli, maktablarda ekologik laboratoriyalarni tashkil etish, dala mashg'ulotlari o'tkazish va amaliy ekologik loyihalarni amalga oshirish talab etiladi. Masalan, "Yashil maktab" konsepsiyasi asosida o'quvchilar ekologik bog'lar yaratishi, chiqindilarni qayta ishlash loyihalarida ishtirok etishi mumkin.

Ota-onalar o'quvchilarning ekologik tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun maktab va oilalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ota-onalar uchun ekologik seminar va treninglar tashkil etish lozim.

Zamonaviy texnologiyalar ekologik ta'limni yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Masalan, virtual laboratoriyalar, ekologik muhitni vizual tasvirlaydigan AR dasturlar, interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalar orqali o'quvchilar ekologik jarayonlarni chuqur o'rganishlari mumkin.

Ekologik ta'lim bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, Finlandiya va Yaponiya maktablarida ekologik barqarorlikni o'qitishning ilg'or usullari mavjud bo'lib, ularni mahalliy ta'lim dasturlariga integratsiya qilish mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan tavsiyalar amalga oshirilsa, ekologik ta'lim sifatini oshirish va kelajak avlodning ekologik mas'uliyatini shakllantirish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, ekologik madaniyatning rivojlanishi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim qadam bo'ladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. New York: Norton.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

3. Orr, D. W. (1992). *Ecological Literacy: Education and the Transition to a Postmodern World*. State University of New York Press.
4. Sterling, S. (2010). *Sustainable Education: Re-visioning Learning and Change*. Green Books.
5. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG-2030). [www.un.org/sdgs](http://www.un.org/sdgs)
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Экологик маданиятни ошириш ва атроф-муhitni muhofaza qilish tizimini rivojlantirish to'g'risida" gi PF-5863-sonli Farmoni (2019-yil 30-oktabr).
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Mahkamasining №343-sonli Qarori – "Maktablarda ekologik ta'limni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" (2021-yil 5-iyun).
8. Ўзбекистон Республикаси Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan "Ekologik ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonun (2022-yil 15-iyun).
9. Ўзбекистон Respublikasi Prezidentining "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish bo'yicha PQ-187-sonli Qarori (2021-yil 1-noyabr).
10. UNESCO (2017). *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. UNESCO Publishing.
11. Tilbury, D. (2011). *Education for Sustainable Development: An Expert Review of Processes and Learning*. UNESCO.